Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI

Narzulloyeva Parvina Jahongir qizi
E-pochta: parvinanarzulloyeva@gmail.com
+998881441730
https://doi.org/10.5281/zenodo.23215579

Annotatsiya:
Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida uchraydigan **uchrashuv motivi**ning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dostonlarda qahramonlarning bir-biri bilan uchrashuvi syujet rivojini ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, asarlarning g'oyaviy mazmunini ochishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uchrashuv motivi orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari, o'zaro munosabatlari, muhabbat, sadoqat, ayriliq va visol kabi tushunchalar badiiy ifodalanadi.
Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, "Xamsa", doston, uchrashuv motivi, motiv, syujet, kompozitsiya, qahramon, muhabbat, visol, ayriliq, sadoqat, badiiy talqin, mumtoz adabiyot, poetika.

Xamsachilik Sharq-islom, ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-falsafiy tafakkuri namunasi hisoblanadi. Ilk "Xamsa" Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan Nizomiy Ganjaviy tomonidan XII asrda yozilgan. Nizmiy o'z "Xamsa" sini shunchaki qaysidir hukumdorlarning buyurtmasi yoki alohida dostonlar to'plami sifatida yozmagan. Balki uning ijodida besh doston bir butun sistema sifatida tug'ilgan. XV asrga kelib esa bu xamsachilik an'anasi Ashraf tomonidan davom ettirilgan. Bundan tashqari Badriddin Hiloliy, G'iyosiddin Sabzavoriy, Said Qosimiy singari shoirlarning "Xamsa" dostonlarga o'xshatma dostonlar bitganlari ma'lum. Shuningdek mutaxassislar arab, fors, turk, o'zbek, ozarbayjon tillarida ham xamsachilik an'analari u yoki bu darajada davom etganini ta'kidlaydilar. Biroq Navoiy "Xamsa" sining "debocha" va "xotima" qismlarida, asosan, bu yo'lda asar bitgan ikki ustozi – Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyni tilga oladi. Faqat ba'zi o'rinlardagina Ashrafni eslab o'tadi. Xamsachilik janrida yozilgan uch xamsadan so'ng Navoiy to'rtinchi xamsani turk tilida yozadi, bu Sharq-islom badiiy tafakkurida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy poetika nuqtayi nazaridan "Xamsa" ga eng yaqin janr bu eposdir. Chunki eposda "Xamsa" singari keng epik plandagi voqealar bayon qilinadi. Xamsa uslubida ham xuddi eposdek epiklik va liriklik o'rtasida izchil munosabat etakchilik qiladi. Epos bir qancha og'zaki janrlarga xos shakl-mazmun xususiyatlarini o'zida jamlar ekan, "Xamsa" ham og'zaki va yozma janrlar strukturasi va semantikasini uyg'unlashtirib bayon etadi. Shuningdek, uchrashuv motivi ham ikki janrda ahamiyatlilik jihatdan yuqori o'rinda turadi.

Epos mutaxassislar tomonidan bugungi kungacha qadimiy va keng qamrovli janr sifatida talqin etib kelinadi. Haqiqatan, epos muayyan bir ijodkor qarashlari emas, balki butun bir millatning orzu-intilishlarini ifoda etadi. Barcha xalqlar eposlarida o'sha millatning o'tmishi, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy tarixi o'z aksini topadi. Umuman, eposlar qaysi millat, qaysi xalq o'tmish hayotini aks ettirmasin, syujet, motiv va obrazlararo tipologik xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Rus olimi M.Baxtin

fikricha, epos dunyosi “ota-bobolar va bobokalonlar”, “birinchilar” va “eng yaxshilar” dunyosidir. Demak, xalqning eng yaxshi ideali sifatida ota-bobolar o‘tmishi turadi. Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov ham ayni fikrlarni tasdiqlaydi: “Epik o‘tmishni o‘zgartirish, qayta idrok etish, qayta baholash mumkin emas. Bir so‘z bilan aytganda, eposning aytuvchisi va tinglovchisi mutloq o‘tmish kishilari, ular boshdan kechirgan voqelik bilan muloqotga kirishar ekan, unga ideal sifatida qaraydi, uni o‘z zamonasi, shu zamona kishilari bilan solishtiradi. Bu jarayonda esa epos voqeligi va qahramonlarini emas, o‘z-o‘zini qayta idrok etadi, baholaydi”. Epos asosida millatlar turmush tarzini va hayotini ko‘rsatib beradigan motivlar ham muhim vazifa bajarar ekan, ular orasida uchrashuv motiviga to‘xtalishni lozim topdik. Uchrashuv motivi esa bevosita uchlik tizmi va “yo‘l”, “safar”, “sinov”, “visol” kabi motivlar bilan bog‘lanadi. Misol uchun, uchrashuv motivi va uchlik tizmining mukammal tasviri “Alpomish”da ko‘rinadi. Negaki uchrashuv motivini to‘ldiradigan boshqa motivlar va ushbu motivni tashkil etadigan “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizmi aynan “Alpomish”da bir tizim sifatida berilgan. Boshqa eposlarda esa oshiq va ma’shuqalar uchrashuvi va visol motivlari to‘la namoyon bo‘lmaydi. “Ramayana” va “Maxabxarata” birgalikda butunlikni hosil qilsa, “Illiada” va Odisseya” dostonlari birlashibgina uchrashuv va boshqa motivlarni to‘laligicha namoyon qilishi mumkin. “Alpomish” dostonida uchrashuv motivigacha juftliklar bir-biri uchun ilohiy tarzda yaratiladi, ya’ni Boybo‘ri va Boysari Ollohdan tilab olishadi. Olloh farzand bergach Shohimardon pir Alpomish va Barchinoyni “beshikkerti” qilib unashtirib qo‘yadi va ayni shu yerida sharq adabiyotiga xos jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sharq adabiyoti, epos tafakkurida oshiq-ma’shuqaning taqdir bilan tug‘ilganligi, bir-biri uchun yaratilganligi ko‘rinadi. Hatto Sharq islom dunyosidagi juft Ollohdan, Olloh har kimni o‘z jufti bilan yaratgan degan g‘oya ilohiy manbalardan eposlarga ko‘chgan. Misol uchun, uchrashuv motivi “Alpomish” da tushda, uyquda ilohiy tarzda sodir bo‘ladi. Garchi Alpomish va Barchinoy birga o‘sgan bo‘lsa-da, oshiq-ma’shuqa sifatida bir-birini tanishi tushdan keyin ro‘y beradi. Alpomish ham chin oshiqqa aylanadi. Ikkinchi tushni esa Alpomish cho‘ponlar qo‘shxonasida, Barchinoy baxmal o‘tovda Rasul payg‘ambarni ko‘radi va kelajakka ishonchi ortadi. “Ravshan” dostonida bo‘lsa xosiyatli hukumat “nigini”da ilk bor Qoraxon podshoning qizi – Zulxumor suratini ko‘rgan Ravshan g‘oyibdan unga oshiq bo‘lib, Avazxon qizini bermasa, Qoraxon qizi-da deb yo‘lga chiqadi. Ya’ni syujetga turtki bergan motiv ham asarda ayni shu uzuk orqali sodir bo‘lgan uchrashuv motividir. Bu dostonda ilk bor uzukda uchrashgan bo‘lsa, tushda bir-birini ko‘rib uzuk almashishi “Kuntug‘mish” da ro‘y beradi. Xolbeka va Kuntug‘mish bir tush ko‘radi, unda chiltonlar ikkisining ruhini olib kelib, Xolbekani to‘raga topshiradi, ikkisi bir-biri bilan uzuk almashadi. Ushbu dostonda ham uchrashuv motivi an’anaviyligini yo‘qotmagan. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida esa oshiq-ma’shuqaning uchrashuvi biroz boshqacharoq kechadi. Musofir yurtda yurgan Ravshanni sakkiz oshyonli imorat yuqorisidan Bibi Hilol ko‘rib yoqtirib qoladi va ikkisi birga bo‘lish uchun reja tuzishadi. Bu dostondagi uchrashuv motivida ilohiylikdan chekinib, reallikka yaqinlashuv sezilib turadi. “Rustamxon” dostonida bo‘lsa ilk uchrashuv “sinov” motivi bilan qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Ya’ni Rustamxon bir o‘tovda qo‘l-oyog‘i bog‘liq Oftoboyni ko‘rib qoladi va uni qutqarish uchun ajdaharni yengadi. Ayni shunda Oftoboy bilan ilk uchrashgan Rustamxon qizning qarshiliklariga shunday javob beradi:

Ushbu damdir o‘zga damni dam dema,
Ajdahordan sira meni kam dema!

Demak, “Rustamxon” da uchrashuv motivi o‘ziga aloqador bo‘lgan yana bir motiv – “sinov” motivi bilan ketma-ket ro‘y beradi. Shular qatorida bizning milliy qomusimiz hisoblanmish –

“Shohnoma”ga ham to‘xtalish o‘rinlidir. Boshqa dostonlar singari “Shohnoma”da ham turli xil motivlar, ayniqsa, “uchrashuv”, “sinov”, “safar” kabilari yetakchilik qiladi. Masalan, “Shohnoma” takibidagi “Rustam va Suxrob” dostonida nafaqat “oshiq va ma’shuqa” o‘rtasidagi uchrashuv, balki bir-birini tanimagan ota va o‘g‘il o‘rtasida ham sodir bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. „Xamsa“. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Navoiy, A. „Hayrat ul-abror“. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Navoiy, A. “Farhod va Shirin”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
4. Bertels, E. E. “Navoi: Monografiya”. – Moskva: Nauka, 1965.
5. Hayitmetov, “A. Navoiy lirikasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
6. Mallayev, N. M. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.